

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ELEKTRON KO‘RGAZMALARDAN FOYDALANISH ORQALI TA’LIM SIFATINI OSHIRISH

*Jabbarova Aziza Shixnazarovna
Buxoro innovatsiyalar universiteti, pedagogika-psixologiya
va sport kafedrasi o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Bugungi ta’lim sharoitida elektron ko‘rgazmalardan foydalanishning dolzarbligi, o‘quv jarayonida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarini shakllantirish orqali ularda hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishni ta’minlovchi zamonaviy o‘qitish vositalariga ehtiyojning ortib borayotganligi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga xalq og‘zaki ijodini o‘rgatishda 4K tamoyillariga e’tibor qaratish, ularda kolloborativlik, kommunikativlik, kreativlik, kritiklikni tarkib toptirishda elektron vositalarning ahamiyati va ta’lim sifatini oshirishdagi imkoniyatlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: elektron ko‘rgazma, vosita, bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya, hayotiy ko‘nikmalar, xalq og‘zaki ijodi, 4K tamoyili, kolloborativlik, kommunikativlik, kreativlik, kritiklik.

Аннотация. Актуальность использования электронных выставок в условиях современного образования, растущая потребность в современных средствах обучения, обеспечивающих развитие жизненных навыков учащихся посредством формирования у них знаний, умений, навыков и компетенций в процессе обучения, ориентация на принципы 4К при обучении учащихся начальных классов устному народному творчеству, привлечение внимания к вопросам развития у них коллективизма, коммуникативности, креативности, критичности. важность электронных инструментов и качества образования в структурировании о его возможностях в повышении квалификации.

Ключевые слова: электронная выставка, среда, знания, навыки, компетенции, компетенции, жизненные навыки, устное творчество, принцип 4К, коллаборационизм, коммуникативность, креативность, критичность.

Annotation. The relevance of the use of electronic exhibitions in today's educational conditions, the growing need for modern teaching tools that ensure the development of life skills in them through the formation of knowledge, skills, competencies and competencies of students in the educational process, focusing on 4K principles in teaching folk oral creativity to elementary students, focusing on colloborativity, communicativeness, creativeness, the importance of

Keywords: electronic exhibition, motor, knowledge, skills, competence, competence, life skills, folk oral creativity, 4K principle, colloborativity, communicativity, creativity, criticality.

Hozirgi davrda tezkor, jadal tarzda axborot texnologiya vositalarining xilma-xil turlari yaratilmoqda. Kundalik hayotimiz uchun axborot texnologiyalarining zarurati tobora oshib bormoqda. Bugungi kunda an’anaviy ta’limda qo‘llaniladigan ko‘rgazmali qurollardan biroz chekingan tarzda ta’lim jarayonida ham darslarni yanada qiziqarli va yangi axborotlarga boy tarzda tashkil etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimedik vositalardan keng foydalanish zarurati oshmoqda.

Jahonda jamiyat axborotlashuvi tendensiyalariga mos ravishda zamonaviy didaktik vositalarni ta’lim jarayoniga kengroq joriy etish va ularning samaradorligini yanada oshirishga alohida yo’nalish sifatida qaralmoqda. Rivojlangan mamlakatlarga xos global ta’lim muhitini shakllantirishga ilmiy yondashuvlar kontekstida ta’limning uzluksizligi va amaliy yo’nalganligini ta’minlash, mustaqil ta’lim olish, ijodiy rivojlanishga yo’naltirish asosiy omil hisoblanadi.

Shu jihatdan, ilg’or ta’lim muassasalari tomonidan o’qitishning yangi shakllarini rivojlantirishda zamonaviy didaktik vositalarni yaratish va ulardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish muammolariga alohida yondashish kuzatiladi. Dunyo miqyosida multimedia texnologiyalarini jadal rivojlantirish, turli uzluksiz axborotlarni jamlash, ularni ta’lim elementlari bilan boyitish, axborot texnologiyalarining nazariy masalalari, turli sohalarda qo’llashning o’ziga xos xususiyatlari, o’quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish mexanizmlari, elektron darsliklar yaratishni takomillashtirish omillariga oid izlanishlar amalga oshirilmoqda.

Milliy ta’lim dasturida belgilangan 4K tamoyillariga asoslangan yondashuvlardan foydalanib o’quv jarayonida multimedia vositalarini qo’llash, ta’limning barcha turlariga zamonaviy didaktik vositalarni tadbiq etish loyiha va ilmiy tadqiqotlar nafaqat axborot makonining ko’rinishini o’zgartirishga, balki sifatli hamda maqsadli o’quv jarayonini to’g’ri tashkil etilishiga олиб келади.

Ayniqsa, boshlang’ich sinflarda o’quvchilarni ta’lim – tarbiya jarayonida xalq og’zaki ijodi bilan tanishtirishda texnik vositalarning turli ko’rinishlaridan foydalanish ularda zamonaviy talablarga asoslangan kollektivlik, kommunikativlik, kreativlik, kritiklik ko’nikmalarini shakllantirish imkonini bermoqda.

Kollaboratsiya - darsliklar o’quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o’quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o’zaro qo’llab-quvvatlash ko’nikmalarini o’rganishga ko’maklashadi;

Kommunikativlik - o’quvchilar o’z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma’lumotni etkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o’rganadi;

Kreativ fikrlash - o’quvchilar o’z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo’llashni o’rganadi, innovatsion echimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko’nikmalariga ega bo’ladi;

Kritik (tanqidiy) fikrlash - ushbu metodologiya o’quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o’z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko’nikmalarini rivojlantirishni o’z ichiga oladi. O’quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o’rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o’z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

Xalqaro tajribalarga asoslangan tarzda ta’limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta’limi ilg’or mamlakatlar o’quvchilarda 4K tamoyilini o’z ichiga olgan XXI asr ko’nikmalarini rivojlantirishga asosiy e’tibor qaratadi.

Boshlang’ich sinflarda o’quvchilarni integratsion yondashuvlar asosida xalq og’zaki ijodi bilan tanishtirishda elektron ko’rgazmalardan foydalanish orqali ularning kommunikativ ko’nikmasi va savodxonlik darajasini oshirishga erishish samarali natija beradi.

PIRLS xalqaro reytingida yuqori o‘rinlarni egallagan davlatlar ta’limida o‘quvchilarda "4K"ni o‘z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko‘nikmalarga alohida urg‘u berilganligi va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishganligi fikrimizning isbotidir.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni xalq og‘zaki ijodi bilan tanishtirishda "4K" modeliga asoslangan innovatsion yondashuvlardan foydalanib, darslarda elektron ta’lim vositalarini qo‘llash o‘qituvchidan yuqori darajadagi kompetentlikni talab etadi.

Masalan, kichik yoshdagi o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyati savol-topshiriqlar bilan, muloqot ko‘nikmasi esa, savol-topshiriqlar va mashg‘ulotlar orqali rivojlanadi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni xalq og‘zaki ijodi bilan tanishtirish natijasini o‘quvchining dunyoqarashi, fikrlashi o‘shida ko‘rish mumkin. XXI asr o‘quvchisi portretida XXI asr ko‘nikmalari bo‘lishi talab etiladi.

boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni xalq og‘zaki ijodi bilan tanishtirish jarayonida elektron ko‘rgazmali vositalardan foydalanish o‘qituvchi-murabbiylarimiz oldida turgan eng muhim talablardan biridir. Bunda:

-boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axborot bilan ishlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish, kognitiv fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishda “mustaqil bilim olish”, “o‘zini-o‘zi baholash”, “o‘zini-o‘zi nazorat qilish”, “axborotni saralash”, “salbiy axborotga nisbatan himoya”, “buzg‘unchi axborotga qarshi kurash”ga o‘rgatishning imkoniyatlari pedagogik, psixologik va fiziologik jihatdan aniqlashtirishga erishish;

-boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axborotlar bilan ishlash, nutqiy va lingvistik kompetensiyalari shakllantirish, ijodiy fikrlash, mustaqil ishlay olish kompetensiyalarini jamoaviy va individuallik asosida ob‘ektiv baholashning integrativligini amaliy ta’minlash orqali takomillashtirish;

o‘quvchilar ta’lim traektoriyasiga oid jarayonlarni oldindan tasavvur qilish, bashorat qilish, gipotezalarni shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirish, yaratuvchanlik, kreativlik kompetensiyalari ishlab chiqilib, o‘quv platformasi va mobil ilovalardan foydalanish orqali o‘qitish metodikasini mazmunan takomillashtirish;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kompetensiyalarini rivojlantirishda elektron kutubxona, virtual va intellektual borliq, robototexnika, arduino, masofadan o‘qitish, ta’lim kontentini boshqarish tizimlari, to‘ldirilgan borliq, hisoblash matematikasi, ijtimoiy tarmoqlar, internet tijorat, raqamli axborotlar bilan ishlash va ularni qayta ishlash texnologiyalari hamda pedagoglarning didaktik ta’minotini yaxshilash, o‘qituvchilar va mentorlar uchun masofadan o‘qitish, LMS, MOOC kurslarining joriy etish samaradorligini asoslash zarur.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni xalq og‘zaki ijodi bilan tanishtirishda “...ko‘rgazmalilik ta’limning eng qadimiy va sinovlardan o‘tgan samarali tamoyillaridan biri, tabiiy, bugun ham bu tamoyil o‘z qimmatini yo‘qotgan emas. Ammo ilgari o‘qituvchi turli hajm va miqdorlarda, ibtidoiy shakl-shamoyillarda, turli materiallar va rang-bo‘yoqlardan foydalanib o‘zi yoki kimningdir ko‘magida ming bir mashaqqat bilan tayyorlashi lozim bo‘lgan ko‘rgazmali qurollar zahmatini bugun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, kompyuterlar, multimedia beminnat o‘z bo‘yniga olgan”[1].

Boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘quv jarayoniga yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, ta’lim sohasida zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari, internet tizimi, raqamli va keng formatli telekommunikatsiyalarning zamonaviy usullarini o‘zlashtirish, bugungi taraqqiyot darajasini belgilab beradigan

bunday ilg‘or yutuqlar uzluksiz ta’lim tizimi hamda har bir oila hayotiga keng kirib borishi lozim, albatta.

Bugungi kunda axborot almashinuvi uzluksiz ta’lim tizimining barcha turlari faoliyatiga, ya’ni umumiy o’rta ta’lim, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’limga ijobiy ta’sir etmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’lim tizimiga keng joriy qilinishi, o’quv jarayonini tashkil etish, o’quv-uslubiy ta’minotini rivojlantirish, fanlarni o’zlashtirish samaradorligini oshirishga olib kelmoqda.

“Kompyuter texnologiyalari asosida takomillashtirilgan o’quv jarayoni:

-butun o’quv jarayonida kompyuter texnikasi vositalarini qo’llashni;

-o’quv jarayonini har tomonlama qamrab olishni;

- texnikaviy, dasturiy, tashkiliy va o’quv-metodik ta’minotni bir turli hamda bir xilligini;

-har xil sharoitlarga qo’llashni moslashtirishni;

-yuqori didaktik va iqtisodiy samaradorlikni;

- yangi usullar asosida ta’limni, fan va ishlab chiqarishning o’zaro munosabatlarida integratsiyalashni hamda mutaxassislarning tayyorgarligining oldindan ilgarilab ketishini ta’minlashni talab qiladi”[2].

Haqiqatan, ushbu talablar kompyuter texnologiyalari bilan tashkil etilayotgan ta’lim jarayonining asosini tashkil qilishga katta yordam beradi.

Elektron o’quv-metodik majmualar, ya’ni elektron ko’rgazmali vositalar davlat ta’lim standartlariga mos keladi, sinf va auditoriya mashg’ulotlarining barcha turlari va mustaqil ta’limning o’quv-metodik ta’minotini o’zida mujassamlashtiradi.

“Elektron o’quv-metodik majmua zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida o’qitishning didaktik, dasturiy va texnik, interaktiv majmuasidan tashkil topadi. Elektron o’quv-metodik majmualar an’anaviy majmualardan farqliroq, o’qitishning kompyuter va an’anaviy texnologiyalarining birligi sifatida namoyon bo’ladi”[1].

XXI asrda fan-texnika taraqqiyoti rivojlanib, axborotlar keskin ko’payib bormoqda. Bill Geyts ta’biri bilan aytganda, insoniyat axborot ummoniga cho’kib ketmoqda. Lekin bu axborotlarni ta’lim oluvchilarga etkazish uchun vaqt chegaralangan. Ona tili darslarida ham xuddi shu vaqt taqchilligi muammosi yaqqol seziladi. Chunki mavzu yuzasidan nazariy ma’lumotlar berish va mustahkamlash mashqlarini bajarish hamda savol-topshiriqlar ustida ishlashga belgilangan vaqt (40–45 daqiqa) juda kam. Elektron ko’rgazmali vositalar ustida ishlanganda bu muammoning echimi bir qadar osonlashadi.

Axborot texnologiyalari o’qituvchiga ma’ruza matnlari va darsliklarni kompyuter xotirasiga kiritish, turli tajribalar o’tkazish, animatsiya, slaydlar, turli xil ko’rgazmali materiallar yaratishga imkon beradi. Ushbu texnika vositalaridan darsda to’g’ri foydalanilsa, ular ta’lim oluvchilarning so’z boyligini oshiradi, talaffuzning ravon bo’lishiga, eshitib tushunish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ona tili darslarida boshlang’ich sinf o’quvchilarini xalq og’zaki ijodi bilan tanishtirishda zarur ma’lumotlarni o’quvchilarga havola etishda ham kompyuter texnologiyalari bizga beminnat yordamchidir.

Masalan, 3-sinf Ona tili kitobida poliz va sabzavot ekinlari, qishloq xo’jaligining boshqa mahsulotlari (paxta, ipak qurti, makkajo’xori) hamda transport vositalari haqidagi topishmoqlar uchraydi. Mazkur topishmoqlarni o’rganishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, multimedia hamda kompyuter o’yinlarini qo’llagan holda o’quvchilarning kommunikativ kompetenligini rivojlantirish imkoniyati yuqlori bo’ladi.

“Bizning kuz”, “Sevimli fasl” mavzularida qovunlar, ularning mazasi, turi, tashqi ko‘rinishi tasvirlanadi. Mavzularda tarvuz haqida fikr berilmaganini hisobga olgan darslik mualliflari o‘zi semiz, bo‘yni yo‘q, terisi qalin, tuki yo‘q (rarvuz)[4] Topishmog‘ini berganlar. Bu esa, bayon etilgan tekstlarni mazmunan to‘latishga imkon beradi. Shuningdek, kuz va qish fasllari haqida topishmoqlar tekstga bog‘liq holda o‘rganilishi mumkin:

O‘qituvchi.- Qor, muz haqida qanday yangi topishmoqlarni bilasiz?

O‘quvchi.- O‘tda yonmas, suvda botmas.

O‘qituvchi.- Yaxshi. Bu topishmoqning javobi nima?

O‘quvchi.- Bu topishmoqning javobi “muz” bo‘ladi.

O‘qituvchi.- Endi mana bu topishmoqning javobini toping: Oq tovuq, katagi sovuq.

Bolalar bu topishmoqning javobi qor ekanligini aytganlaridan so‘ng, o‘qituvchi doskadan pardani surib, oldindan doskaga yozib qo‘yilgan she‘riy topishmoqni ifodali o‘qib beradi. Dars yakunida o‘qituvchi topishmoqlar asosidagi xulosalar bo‘yicha o‘quvchilarning ijodiy faoliyatlarini baholash maqsadida yakunlovchi suhbatni o‘tkazadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, boshlang‘ich ta’lim jarayonida, ayniqsa o‘quvchilarning ijodiy kommunikativlik hamda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini tarkib toptirishda ona tili darslari mazmuni tabiatni sevish, atrof muhitga e‘tiborli bo‘lish, muammolarga echim izlash, faoliyatni tanqidiy baholash, shaxs sifatida o‘z-o‘zini baholash, faol harakatda bo‘lish ular ongida vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik kabi g‘oyalarni tarkib toptirishda yordam beruvchi kichik-kichik matnlarni kompyuter xotirasiga kiritib, dars jarayonida qo‘llash orqali ta’lim oluvchilarga ham ma’naviy ozuqa beriladi, ham puxta nazariy bilimlar bilan qurollantirilib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov N. Zamonaviy ona tili. / Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2013. 5 son. – B.: 7.
2. Fayazova M. R. Uzluksiz ta’lim tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanish. // Uzluksiz ta’lim. – Toshkent, 2013. 1 son. – B.: 58–59.
3. Mamatov D. N., Rajabova S. Y. Ta’limda elektron o‘quv-metodik majmualardan foydalanish. // Maktab va hayot. – Toshkent, 2012. 7–8 son. – B.: 30.
4. T.Ashrapova, N.Hotamov “O‘qish kitobi”, 2-sinf uchun “O‘qituvchi”. T., 1977,28-bet.